KLINIK LABORATOR DIAGNOSTIKADA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

18 aprel 2023 yil

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi

www.ssv.uz

Toshkent tibbiyot akademiyasi www.tma.uz

Created with Icecream PDF Editor.
Icecream PDF Editor PRO

Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Nasliy sferotsitar anemiya klinik laborator diagnostikasi ……...	**293**
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. O‘tkir leykoz klinik xususi-yatlari …….	**296**
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. O‘tkir leykoz klinik laborator diagnostikasi ……	**298**
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Surunkali limfoleykoz etiopatogenezi va klinik xususiyatlari ……..	**300**
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Surunkali limfoleykoz klinik laborator diagnostikasi ……	**302**
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Surunkali mieloleykoz klinik xususiyatlari ……..	**304**
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Surunkali mieloleykoz laborator diagnostikasi ……	**306**
Kurbonova Z.Ch., Khushbokova G.U. Hematological changes in patients with Covid-19 ……	**308**
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Aplastik anemiya klinik laborator diagnostikasi ……	**310**
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Vitamin B_{12} tanqislik anemiyasi klinik laborator tashxisi	**313**
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Temir tanqislik anemiyasi klinik laborator diagnostikasi ……..	**315**
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Baltayeva F.G. Koronavirus infeksiyasida koagulyasion gemostaz buzilishining laborator diagnostikasi	**318**
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. , Baltayeva F.G. Koronavirus infeksiyasida trombotsitar gemostaz buzilishining laborator diagnostikasi..	**320**
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. , Baltayeva F.G. Covid – 19 da antiagregant terapiya samaradorligini baholash	**322**
Ҡasimova O.O. Parkinson kasalligi va laboratoriy tashxoshishning innovatsion usullari	**324**
Liverko I.V, Babamatova H.U, Maqsadaliyeva Z. Videothoracoscopic studies of the bronchopulmonary system in order to improve the diagnosis of tuberculosis ……	**325**
Mamatov O.A. Gepatit B klinik laborator diagnostikasi ……..	**326**
Mirzayeva K.S., Shermuhamedova F.K., Ashurova D.S. Covid-19 ga	

Created with Icecream PDF Editor. PRO

GEPATIT B KLINIK LABORATOR DIAGNOSTIKASI

Mamatov O.A.
Toshkent tibbiyot akadimiyasi

Virusli gepatit B HBV virusi keltirib chiqaradigan yuqumli kasallik bo'lib, sariqlik va metabolic kasalliklar bilan birga keladi, ko'pincha surunkali gepatit va jigar sirroziga olib keladi. HBV virusi 1967-yilda kashf etilgan va gepatoviruslar guruhiga kiradi. Uning genomi 2 ta DNK zanjiridan iborat. Virus ichki va tashqi membranalar bilan bog'langan hamda tashqi muhitga juda chidamli. Xona haroratida 3 oy, muzlatgichda 6 oydan 15-20 yil davomida saqlanishi mumkin HBV keng tarqalgan. Infektsiya manbai kasallikga chalingan odam va surunkali tashuvchilardir. Yuqish mexanizmlari: parenteral (in'ektsiyalar, qon quyish), teri va shilliq pardalarga zarar etkazadigan manipulyatsiyalar (operatsiyalar, endoskopik tekshiruvlar, manipulyatsiyalar, pedikyurlar, tatuirovkalar), jinsiy yo‘l bilan.

HBV bilan kasallanish ehtimoli juda yuqori. Infektsiya bilan kasallanish OITSga qaraganda 100 baravar yuqori. HBV 12 yoshgacha bo'lgan bolalar va 30 yoshdan oshgan odamlarga ko‘proq ta'sir qiladi. Kasallikdan keyin immunitet uzoq vaqt davomida shakllanadi.

HBV virusi jigar parenximasini, ya'ni gepatotsitlarni zararlaydi. Klinik ko‘rinishiga ko‘ra sariqlik va sariqliksiz shakllari, klinik belgilarsiz (subklinik, virus yuqishi) shakllari farqlanadi. Kasallik og'irligi bo‘yicha engil, o'rta va og'ir turlari bo‘ladi. Yashirin muddati 40-180 kun. Sariqlikdan oldingi davr 1-2 haftagacha, ba'zan hatto uzoqroq davom etadi.

Kasallik asta-sekin boshlanadi: umumiy holsizlik, ishtahaning yo'qolishi, ko'ngil aynishi va qayt qilish, qabziyat yoki diareya, o'ng qovurg‘a ostida og'irlik va og'riq hissi, suyak va bo'g'imlarning og'rishi va noqulaylik, bosh aylanishi, bosh og'rig'i, uyqusizlik, peshob qo'ng'ir jigarrangga aylanadi, teri, skleralarning sarg‘ayishi kabi belgilar kuzatiladi.

Gepatit B diagnostikasi uchun umumiy qon tahlili, umumiy peshob tahlili, biokimyoviy tahlillar, immunoferment tahlili va polimeraz zanjirli reaksiya o‘tkaziladi.

Qonning umumiy tahlilida leykopeniya, limfotsitoz, EChT oshishi kuzatiladi. Umumiy peshob tahlilida rangi qo'ng'ir jigarrangga aylanadi, tarkibida bilirubin va o‘t kislotalari oshadi. Biokimyoviy tahlillarda ALT, AST va bilirubin bog‘langan fraksiyasi oshadi. Immunoferment analizda virus miqdori va unga qarshi antitanalar, polimer zanjirli reaksiyada esa virus miqdori tekshiriladi.

Adabiyotlar.

1. Курбонова З.Ч., Сайфутдинова З.А. Лаборатор текширувлар учун материал олиш коидалари: ўқув қўлланма. Тошкент, 2023.
2. Курбонова З.Ч., Сайфутдинова З.А. Лаборатор текширувлар учун материал олиш коидалари: электрон ўқув қўлланма. Тошкент, 2023.
3. Курбонова З.Ч., Сайфутдинова З.А. Клиник лаборатор таҳлиллар учун биологик материал олиш қоидалари: ўқув - услубий қўлланма. Тошкент, 2023.
4. Babadjanova Sh.A., Курбонова З.Ч. Qon kasalliklari: o'quv qo'llanma. 2023, 156 b.

Icecream PDF Editor. PRO

5. Kurbonova Z.Ch., Sayfutdinova Z.A. Laborator tekshirish uchun material olish qoidalari: o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2023.

COVID-19 GA BOG’LIQ KRANIAL POLINEVROPATIYALARNING DIAGNOSTIK XUSUSIYATLARI

Mirzayeva K.S., Shermuhamedova F.K., Ashurova D.S.
Toshkent tibbiyot akademiyasi, Uzbekiston, Toshkent.

Bugungi kunda COVID-19 ga chalingan bemorlarning 45% nevralogik kasalliklarga duch kelmoqda. Umumiy nevralogik asoratlar nevrasteniya ko’rinishidan to jiddiy nevralogik asoratlar, ya’ni bosh miya ishemiyasi, ensefalomiyelit, ensefalopatiyalar, polinevropatiya (periferik asab tizimining shikastlanishi) kabilarni o’z ichiga oladi. Shu kasalliklar qatorida cranial nervlarning ham ko’plab zararlanishi kovid infeksiyasi o’tkazgan bemorlarda turli muddat oralig’ida kuzatilgani haqida ayrim xorijiyma’lumotlarnashretildi. Lekin bu ma’lumotlar amaliy, nazariy, statistic ma’lumotlar yig’ish uchun yetarli emas. Shuning uchun ham bu muammoni o’rganishni chuqurlashtirish va ommalashtirish ehtiyoji tug’ildi.

Tadqiqot maqsadi. COVID-19 infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda cranial nervlarning zararlanish holatlarini kuzatish va diagnostik xususiyatlarini o’rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqot Toshkent tibbiyot akademiyasi ko’p tarmoqli klinikasi Lor va Nevralogiya bo’limlarida o’tkazildi. COVID-19 dankeyingi cranial polinevropatiyalar bo’yicha 18-60 yosh chegarasidagi jami 30 ta bemorda tadqiqot o’tkazildi. Shulardan 22 tasi ayol (73%), 8 tasi erkak (27%). O’rganilgan bemorlarning qon immunologic tekshiruvlaridan d-dimer hamda qon biokimyoviy tahlillaridan fibrinogen tahlillari olindi va bemorlarda klinik-nevrologik tekshiruvlarni o’tkazish bilan kasallikning o’ziga xos kechishi va diagnostik xususiyatlari aniqlandi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot o’tkazilgan bemorlarda quyidagi o’zgarishlar aniqlandi.

D-dimer tahlili: o’rganilgan bemorlarning 8 tasida (26.7%) 250ng/ml va undan past; 20 tasida (66,7%) 250ng/ml<va<500ng/ml oralig’ida; 2 ta bemorda (6,67%) 500ng/ml<oshganligi aniqlandi.

Fibrinogen tahlili: o’rganilgan bemorlarning 17 tasida (56.6%) 400 mg/ml<va<600mg/ml oralig’ida; 1 tasida (3,33%) 600mg/ml<va<800mg/ml oralig’ida; 2 ta bemorda(6,67%) 800mg/ml dan oshganligi kuzatildi.

Xulosa. COVID-19 infeksiyasi o’tkazgan bemorlarda kuzatilgan cranial polinevropatiyalarda bemorlarning d-dimer va fibrinogen miqdori oshganligi aniqlandi. Shuningdek o’rganilgan tahlillarning oshishi bemorlarda kasallikning klinik manzarasi va o’choqli nevralogik belgilarining sekin tiklanishi bilan xarakterlanadi.

Icecream PDF Editor.